

## V. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI<sup>1)</sup>

**Foyda.** Hisobot ma'lumotlariga ko'ra, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida korxona va tashkilotlar tomonidan **471 268,4** mln. so'm miqdorda yakuniy moliyaviy natija olindi.

### **2022- yilning yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yakuniy moliyaviy natijalari**

	<i>Foyda, zarar (+,-), mln. so'm</i>	<i>2021- yilning shu davriga nisbatan, % da</i>
<b>Jami</b>	<b>471 268,4</b>	<b>118,4</b>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	73,4	95,2
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	-4 561,9	-
Ishlab chiqaradigan sanoat	202 657,9	146,9
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	57 132,6	124,1
Qurilish	42 786,0	163,0
Savdo	40 208,5	121,9
Tashish va saqlash	4 685,0	19,5
Suv bilan ta'minlanish; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	-4 533,5	-
Axborot va aloqa	3 240,1	76,2
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	7 970,3	-
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	5 851,8	140,9
Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	0,4	3,6
Ta'lim	535,6	2,8 m.
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	20 400,8	118,7 .
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	53,4	2,0
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	-	-
Boshqa turdag'i xizmatlar	-	-

<sup>1)</sup>Byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo'jalik korxonalari, fermer va dehqon xo'jaliklari, sug'urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.

Ijobiy moliyaviy natija (foyda)ning asosiy qismi savdo korxonalariga 40 208,5 mln. so'mga, ishlab chiqaradigan sanoat korxonalariga 202 657,9 mln.


so‘mga, qurilish korxonalariga 42 786,0 mln. so‘mga, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash 57 132,6 to‘g‘ri keladi.

Salbiy moliyaviy natija (zarar)ning asosiy qismi suv bilan ta’minlanish, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalariga minus -4 533,5 mln. so‘mga, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash -4 561,9 mln. so‘mga to‘g‘ri keldi.

### **2022- yilning yanvar-avgust oylarida hududlar kesimida yakuniy moliyaviy natijalari**

	<i>Foyda, zarar (+,-), mln. so‘m</i>	<i>2021- yilning shu davriga nisbatan, % da</i>
<b>Viloyat bo‘yicha</b>	<b>471 268,4</b>	<b>118,4</b>
Samarqand sh.	300 134,2	105,4
Kattaqo‘rg‘on sh.	472,7	27,7
tumanlar:		
Oqdaryo	-8 983,7	-
Bulung‘ur	3 655,6	179,5
Jomboy	38 972,8	88,2
Ishtixon	2 305,4	-
Kattaqo‘rg‘on	-30,4	-
Narpay	2 125,4	36,3
Payariq	908,6	125,2
Pastdarg‘om	-6 629,1	-
Paxtachi	-4 508,5	-
Samarqand	36 660,0	86,5
Urgut	1 501,3	2,4 m.
Toyloq	45 503,8	135,3
Nurobod	59 171,9	8,1 m.
Qo‘shabot	8,4	1,4 m.

**2022- yilning yanvar-avgust oylarida hududlar kesimida  
yakuniy moliyaviy natijalar, (2021- yilning shu davriga nisbatan % da)**



Hududlar kesimida foydaning asosiy qismi Samarqand shahri 300 134,2 mln. so'm (jami foydaning 63,7 %), Nurobod tumani 59 171,9 mln. so'm (jami foydaning 12,6 %) va Jomboy tumani 38 972,8 mln. so'm (jami foydaning 8,3 %) ga to'g'ri keladi.

**Zarar.** 2022- yilning yanvar-avgust oylarida 25 ta korxona 64 831,3 mln. so'm zarar bilan faoliyatini yakunladi.

Zararning asosiy qismi "Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash" va "Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish" tarkibiga kiruvchi korxonalar hissasiga to'g'ri keldi.

## Faoliyat turlari bo'yicha zarar ko'rgan korxonalarining moliyaviy natijalari

	Korxonalar soni	Zarar summasi	
		mln. so'm	jamiga nisbatan foizda
<b>Jami</b>	25	64 831,3	100
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	1	4 576,9	7,1
Ishlab chiqaradigan sanoat	8	36 491,7	56,3
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	1	851,5	1,3
Suv bilan ta'minlanish, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	1	4 542,1	7,0
Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	3	15 922,1	24,6
Tashish va saqlash	4	1 333,6	2,1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3	245,3	0,4
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2	749,7	1,2
Ta'lim	1	1,4	0,0
Boshqarish bo'yicha faoliyat va yodamchi xizmatlar ko'rsatish	1	117,0	0,2

## Hududlar kesimida zarar ko'rgan korxonalarining moliyaviy natijalari

	Korxonalar soni	Zarar summasi, mln. so'm	Umumiy hajmga nisbatan, % da
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>25</b>	<b>162 320,3</b>	<b>100,0</b>
1 Samarqand sh.	14	29 917,0	46,1
<i>tumanlar:</i>			
2 Oqdaryo	1	9 000,0	13,9
3 Paxtachi	2	4 576,9	7,1
4 Jomboy	1	31,4	0,05
5 Pastdarg'om	3	19 047,9	29,4
6 Toyloq	2	78,4	0,1
7 Urgut	1	1 326,5	2,0
8 Kattaqo'rg'on	1	850,7	1,3

## **Korxona va tashkilotlarning debitor va kreditorqarzdorligi holati<sup>1)</sup>**

2022- yil 1- avgust holatiga debitor qarzdorlikning umumiy hajmi 8 032 444,0 mln. so‘mni, shundan muddati o‘tgani 95 029,9 mln. so‘m yoki jami qarzdorlikning 1,2 foizini tashkil qildi.

Hududlar bo‘yicha ko‘rilganda debitor qarzdorlikning eng yuqori qismi Samarqand shahri hisobiga to‘g‘ri kelib 3 876 158,6 mln. so‘mni yoki jami debitor qarzdorlikning 48,3 foizini tashkil qilgan bo‘lsa, Toyloq tumanida 553 540,2 mln. so‘mni (6,9 %), Jomboyda 914 863,1 mln. so‘mni (11,4 %), Urgutda 360 647,5 mln. so‘mni (4,5 %), Pastdarg‘omda 1 049 191,9 mln. so‘mni (3,8 %), Ishtixonda 247 132,5 mln. so‘mni (3,1 %) tashkil qildi. Debitor qarzdorlikning eng past ko‘rsatkichi esa 3 008,9 mln. so‘m bo‘lib (0,04 %), Kattaqo‘rg‘on shahri hisobiga to‘g‘ri keldi.

### **2022- yil 1- sentyabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha muddati o‘tgan debitor qarzdorlikning tarkibi**

2022- yil 1- sentyabr holatiga kreditor qarzdorlikning umumiy hajmi 9 062 432,1 mln. so‘mni, shundan muddati o‘tgani 49 092,6 mln. so‘m yoki jami qarzdorlikning 0,5 foizini tashkil qildi.

Hududlar bo‘yicha ko‘rilganda kreditor qarzdorlikning eng yuqori qismi Samarqand shahri hisobiga to‘g‘ri kelib 5 118 588,3 mln. so‘mni yoki jami kreditor qarzdorlikning 56,5 foizini tashkil qilgan bo‘lsa, Jomboy tumanida 1 405 053,0 mln. so‘mni (15,5 %), Pastdarg‘omda 204 767,0 mln. so‘mni (2,3 %), Toyloqda 832 517,2 mln. so‘mni (9,2 %) va Urgutda 329 767,1 mln. so‘mni (3,6 %) tashkil qildi. Kreditor qarzdorlikning eng past ko‘rsatkichi esa 3 207,0 mln. so‘m bo‘lib (0,04 %) Qo‘shrabot tumani hisobiga to‘g‘ri keldi.

### **2022- yil 1- sentabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha muddati o‘tgan kreditor qarzdorlikning tarkibi**

	Jami, mln. so‘m	undan:			Muddati o‘tgan qarzdor- likning ulushi, % da
		<i>etkazib beruvchilarga va pudratchilarga berilgan avans</i>	<i>olingan avanslar</i>	<i>ichki idoraviy qarz</i>	
<b>Jami</b>	<b>9 062 432,1</b>	<b>4 850 267,1</b>	<b>2 336 028,8</b>	<b>549 652,9</b>	<b>100,0</b>
Ishlab chiqaradigan sanoat	5 437 050,0	2 625 529,9	1 852 695,1	108 319,2	60,0
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	1 338 001,7	999 679,5	142 745,3	162 848,9	14,8
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	101 179,7	34 376,8	45 614,1	-	1,1

## Xo‘jalik boshqaruv organlarida jami kreditor qarzdorlikning debitor qarzdorlikga nisbatan oshishi

	<i>Kreditor qarzdorlikning debitor qarzdorlikdan oshishi</i>	
	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>debitorga nisbatan, % da</i>
“O‘zavtosanoat” AJ	678,5	156,3
“O‘zkimyosanoat”	41,2	5,5 m.
“Uy joy kommunal xizmati”	6,7	135,1

Jami kreditor qarzdorlikning debitor qarzdorlikdan oshishi “O‘zkimyosanoat” AJ 41,2 mlrd. so‘mga (5,5 m. %), “O‘zavtosanoat” AJ 678,5 mlrd. so‘mga (156,3 %) kuzatildi. Bu korxonaning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir etishi mumkin.

Hududlar bo‘yicha kreditor qarzdorlikning debitor qarzdorlikdan oshishi Samarqand shahrida 288,2 mlrd. so‘m (118,0 %), Jomboy tumani 490,5 mlrd. so‘m (153,7 %) to‘g‘ri keldi.